Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDA IJTIMOIY-IQTISODIY MUAMMOLAR VA ZAMONAVIY TALQIN

Amanova Lola Baydulla qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Menejment fakulteti MNP-903/26 guruh talabasi
lola_amanovva@icloud.com
+998500795767
https://doi.org/10.5281/zenodo.24133761

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotining yirik namoyondalaridan biri buyuk qalam sohibi bo’lmish Abdulla Qahhorning “Bemor” va “O‘g‘ri” hikoyalari orqali jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar tahlil qilinadi. Adib asarlarida aks etgan kambag‘allik o’zbek xalqining XX asr boshlarida boshidan o’tkazgan ayanchli voqealari, jamiyatning moddiy va ma’naviy ahvoli, inson kapitalining poymol bo’lishi hamda transaksion xarajatlar zamonaviy iqtisodiy nazariyalar nuqtayi nazaridan ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: Abdulla Qahhor, inson kapitali, transaksion xarajatlar, iqtisodiy tahlil,ijtimoiy muammo, kambag’allik tuzog‘i, badiiy tahlil, ijtimoiy realizm.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ijodkorlar bilan bo‘lgan uchrashuvlaridan birida ta’kidlaganidek: “Adabiyot va san’at arboblari hamisha jamiyatning eng oldingi saflarida bo‘lishi, o‘z asarlari, faol grajdanlik pozitsiyasi bilan odamlarni ezgu maqsad va marralar sari boshlashi, ilhomlantirishi kerak”. Ayni shu fikr qanchalik buyuk haqiqatni o‘zida mujassamlashtirgani Abdulla Qahhor (1907–1968) qalamiga mansub “Bemor” va “Og‘ri” hikoyalarini o‘rganish jarayonida yaqqol namoyon bo‘ladi. Abdulla Qahhor ijodi o’z davrining muhim bosqichini tashkil etib, davr muammolarini, jamiyatdagi illatlar, iqtisodiy qoloqlik va inson fojealarini o’tkir realizm va satira orqali ochib bergan. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng miqyosli islohotlar: kambag’allikni qisqartirish, inson kapitalini rivojlantirish, korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosatining eng ustuvor yo’nalishlaridan biriga aylangan. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, Qahhor hikoyalaridagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni zamonaviy iqtisodiy yo’llar orqali qayta talqin qilish dolzarbligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Abdulla Qahhor 1907-yil 17-sentyabrda Qo‘qonning Asht tumanidagi qishloqlardan birida tug‘ilgan. Yozuvchining bolalik yillari Birinchi jahon urushi, mardikorlik voqealari, ishsizlik, kambag‘allik kabi qiyin davrga to’g’ri kelgani barchamizga ayon. Abdulla Qahhor o‘zining “O‘tmishdagi ertaklar” asarida quyidagi fikrlarni ta’kidlab o’tadi: ”Bundan o’ttiz yil burun men Anton Pavlovich Chexov domlaning yigirma ikki tomlik to’plamini qo’limdan qo’ymasdan o‘qib chiqdim. Shunda alomat bir hodisa yuz berdi: shu bilan muhtaram ustod menga go’yo muborak ko‘zoynaklarini berdi-yu: “Mana buni taqib, o’z xalqingni o‘tmishiga nazar sol!” dedilar. Balki, mana shularning natijasi o’laroq, o’ttizinchi yillarning o‘rtalarida g‘am-g‘ussaga to‘la “O‘g‘ri”, “Bemor”, “Ming bir jon”, “Anor” kabi asarlari vujudga kelgan”.[O‘tmishdan ertaklar] Shuning uchun ham Abdulla Qahhorni “o‘zbek Chexovi” deb atashlari

bejiz emas, chunki u ham Chexov kabi hayot haqiqatlarini,o‘tmishini o’z asarlarida badiiy mahorat va oshkoralik ila yoza olgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Abdulla Qahhor ijodiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar o’zbek adabiyotshunosligida alohida ahamiyat kasb etadi. Qahhor ijodining realistik tabiati,uning jamiyat illatlarini ochib bera olish mahorati M.Qo‘shjonov,U.Normatov kabi adabiyotchilarning asarlarida yaqqol ko’zga tashlanadi.Shuningdek, ular adibning qahramonlar taqdiri orqali o’sha davr kishilarning turmush tarzi ijtimoiy muammolarini haqqoniy tarzda tasvirlab berganini ta’kidlaydilar.Yozuvchi ijodini post-sovet davrida qayta baholagan olimalardan biri -Gulchehra Sultonova bo‘lib, u “Abdulla Qahhor hikoyalarida ayol obrazi va ijtimoiy stereotiplar” nomli maqolasida hikoyalardagi shaxs – ayniqsa ayol obrazlari orqali ijtimoiy bosim, cheklovlar va jamiyatdagi patriarxal munosabatlar yoritilganini tahlil qiladi. Sultonovaning fikricha, Qahhorning ayol obrazlari passiv emas, balki ichki kuchga ega bo‘lgan murakkab qahramonlardir.

Yevropa adabiyoti bilan qiyosiy tahlil qilgan Baxtiyor Nazarov Chexov va Qahhor orasidagi stilistik va tematik yaqinliklarga e’tibor qaratadi. Unga ko‘ra, Chexov singari Qahhor ham ichki sukunat fonida keskin ruhiy iztiroblarni tasvirlash orqali jamiyatning og‘riqli nuqtalariga urg‘u beradi. Bu yondashuv, ayniqsa “O‘g‘ri”, “Bemor”, “O‘jar” hikoyalarida yaqqol namoyon bo‘ladi.[1] Yuqorida keltirilgan manbalar Qahhor ijodidagi shaxs va jamiyat orasidagi iqtisodiy munosabatlarni, resurslar taqsimotidagi adolatsizliklarni va institutsional muammolarni har jabhada yoritishga imkon yaratadi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda ma’lumotlar asosan Abdulla Qahhorning “Bemor” va “O‘g’ri” hikoyalarini o’rganish, adabiy manbalarni tahlil qilish va zamonaviy iqtisodiy nazariyalar bilan taqqoslashga imkon beradi. Tahlil metodi sifatida kontektsual, qiyosiy-iqtisodiy yondashuv hamda institutsional tahlil usullari qo’llanildi. Bu yondashuv orqali hikoyalardagi shaxs va jamiyat o’rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar chuqur tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Buyuk qalam sohibi Abdulla Qahhor hikoyalarida inson taqdiri ijtimoiy-iqtisodiy muhit bilan chambarchas bog’liq holda tasvirlanadi. Kambag’allik va yo’qchilik asar qahramonlarining tanlov imkoniyatlarini cheklab, ularni “kambag‘allik tuzog‘i”ga solib qo’yadi. Kasallik bo’lsa, inson kapitalini zaiflashtirib, oila daromadini kamaytiradi va qashshoqlikni yanada ortishiga sabab bo’ladi. Shuningdek,maqsadga erishish yo’lidagi to’siqlar va vositachilarga bo’lgan ehtiyoj transaksion xarajatlarning oshishi, ehtiyoj va axloqiy me’yorlar orasidagi ziddiyat esa ijtimoiy muhitning shaxs xulq atvoriga bo’lgan ta’sirini yaqqol ko’rsatadi. Ironiya, dialog hamda ramziy tasvirlar orqali adib bu muammolarni faqatgina tarixiy hodisa sifatida emas, balki hozirgi kunda ham dolzarb bo’lgan iqtisodiy va ijtimoiy adolat masalalari sifatida chuqur ochib beradi.

[1] https://universalpublishings.uz/id/eprint/13534/1/23610.pdf

1-Jadval.

“Bemor” va “O‘g‘ri” hikoyalaridagi ijtimoiy muammolarning zamonaviy iqtisodiy tahlili.[2]

Hikoya nomi	Asardagi ijtimoiy-iqtisodiy holat	Aniqlangan iqtisodiy muammo	Zamonaviy iqtisodiy kategoriya
Bemor	Sotiboldining xotini kasallanganda moliyaviy resurs yo‘qligidan bor-yo’g’ini tabiblarga berib tugatishi	Sog‘liqni saqlashga investitsiya yo‘qligi, moliyaviy savodxonlik yetishmasligi	Kambag‘allik tuzog‘i va inson kapitalining yemirilishi
O‘g‘ri	Qobil boboning ho‘kizi o‘g‘irlangach, uni topish uchun amaldorlarga pora berib xonavayron bo‘lishi	Mulk huquqqining himoyalanmaganligi, yuqori korrupsiya va byurokratiya	Yuqori transaksion xarajatlar

Qahhorning “Bemor” hikoyasida inson kapitalining tanazzulga uchraganini uchratishimiz mumkin.Hikoyada keltirilgan Sotiboldi oilasining fojiasini shunchaki qashshoqlik deb bo’lmaydi, bu iqtisodiy adabiyotda “Kambag‘allik tuzog‘i” deb ataluvchi holatdir.Ayolining kasalligi uchun mablag‘ yo‘qligi, bor mablag‘ ham tibbiyotga emas, balki samarasiz ishlarga sarflanishi resurslarning noto‘g‘ri taqsimlanishini yaqqol namunasi bo‘la oladi. Zamonaviy iqtisodiyotda inson kapitaliga kiritilgan sarmoya iqtisodiy o’sishning asosiy yo’lboshchisi hisoblanadi.Hikoyada ko‘rsatilganidek, ijtimoiy himoya va tibbiy sug’urta bo‘lmagan jamiyatda kichik iqtisodiy muammo ham butun boshli oilaning tanazzulga uchrashiga sabab bo‘ladi. “O‘g‘ri” hikoyasi esa yozuvchining jamiyatdagi adolatsizlik va ijtimoiy tengsizlikka bo’lgan munosabatini ifodalaydi.Asardagi haqiqiy o‘g‘ri xalqning og‘ir holatidan foydalanib,undan foyda ko’radigan amaldorlardir.Asar qahramonlari ellikboshi, amin, pristav va boshqa amaldorlar o’zlarini mehribondek ko‘rsatib, xuddiki yordam bermoqchidek tutishadi. Ammo ularning hammasi chorasiz qolgan Qobil bobodan pul, sovg’a va shu kabilarni olish uchun qilingan edi. U murojaat qilgan har bir amaldor unga ho‘kizini topib berishda umid bag‘ishlaydi, ammo hech biri unga yordam qo‘lini uzatmaydi. Agar jamiyatda mulkdorning huquqini himoya qiluvchi adolatli institutlar ishlamasa, fuqarolarning transaksion xarajatlari nihoyatda oshib ketadi. Bu esa xususiy mulkdorlarning yo‘q bo‘lishiga va iqtisodiy faollikning tushib ketishiga asosiy sabab bo‘ladi. Hozirgi kunda O‘zbekistonda “Ijtimoiy himoya yagona reystri”ning joriy etilishi, tibbiy xizmatlarni aholining barcha qatlamlariga yetkazish, xususiy mulk daxlsizligining kafolatlanishi va korrupsiyaga qarshi keskin kurash aynan Abdulla Qahhor asarlarida tanqid qilingan tizimli muammolarning zamonaviy iqtisodiy yechimi bo’lib kelmoqda.

[2] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

XULOSA

XX asr zabardast va atoqli ijodkori Abdulla Qahhor doimo xalq dardi bilan birga hayot kechirgan. Uning obrazlari turmushning oddiy voqealari orqali jamiyatdagi ijtimoiy adolatsizlik, axloqiy inqiroz va shaxsiy iztiroblarni ko'rsatib beradi. Uning "O'g'ri" va "Bemor" hikoyalarida kambag'allik, inson kapitalining zaiflashishi va transaksion xarajatlar bilan bog'liq muammolar o'z aksini topgan.jamiyatga moslashishga majbur bo'lgan, ammo ichki erkinlik va insoniy qadr-qimmatini saqlab qolishga intilayotgan qahramonlar timsolida o'zbek xalqining ruhiy kechinmalari badiiy ifodasini topadi

Ushbu asarlarni zamonaviy adabiyotshunoslik metodologiyasi, xususan, tarixiy-qiyosiy, sotsiologik va diskursiv tahlil usullari nuqtayi nazaridan o'rganish nafaqat Qahhor ijodini yangi qirralarini ochishga, balki o'sha davrning iqtisodiy-ijtimoiy tarixini ham yanada aniqroq o'rganishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek, "Adabiy do'stlik - abadiy do'stlik": buyuk shoirlarimizning asarlari zamondosh va kelgusi avlod o'rtasida ma'naviy ko'prik bo'lib qoladi, ularning ijtimoiy adolat, insonparvarlik va haqiqatga intilish ruhi hech qachon so'nmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shavkat Mirziyoyev.Adabiyot va ma'naviyatga oid nutq va ma'ruzalar.- Toshkent: O'zbekiston, 2017
2. .Abdulla Qahhor. O'tmishdan ertaklar. Sarguzasht qissa. –Toshkent: Toshkent badiiy adabiyot nashriyoti, 1966. 289 b
3. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruza. - Toshkent, 2017. - president.uz
4. Mirziyoyev Sh.M. "Adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq bezavol yashaydi". - Xalqaro adabiy konferensiya chiqishi. - Toshkent, 2019.
5. Nazarov B. XIX asr o'zbek satirik she'riyati. - Samarqand: SamDU nashriyoti, 2011. - 230 b.
6. "O'zbek adabiyoti tarixi". 5-jild. – Toshkent: Fan, 2016. – 412 b.
7. Qahhor A.Tanlangan asarlar. Hikoyalar: "Bemor", "O'g'ri". Toshkent, 2018.
8. Nazarov, B. *O'zbek va rus adabiyotida psixologik hikoya: Chexov va Qahhor ijodida tahlil*. – Toshkent: Fan, 2002. – 128 b.
9. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.